XALQ DEPUTATLARI QARSHI SHAHAR KENGASHI
Q A R O R I

2022 - yil 21 - fevral VI-30-20-4-69-K/22 Qarshi shahar hokimligi

Qarshi shahridagi “Otchopar”, “Arabxona” mahalla fuqarolari yig`inlari negizida yangi mahalla fuqarolar yig’inlarini tashkil etish to’g’risida

O’zbekiston Respublikasining 2011-yil 12-oktyabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari to’g’risida”gi Qonunining 10-moddasi, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 4-martdagi “Shaharlar, posyolkalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo’lish va tugatish, shuningdek ularning chegaralarini belgilash va o’zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o’zgartirish tartibi to’g’risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi Qarori, shahardagi mahalla fuqarolar yig’inlarining iltimosnomalari va shahar hokimining shahar hududida yangi tashkil etilgan 4 ta mahallani nomlash bo’yicha taklifi, O’zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo`mitasi huzuridagi Kadastr agentligining 2021-yil 9-martdagi 03-08-868-sonli xati hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to’g’risida”gi Qonunning 6-moddasiga asosan Xalq deputatlari Qarshi shahar Kengashi

QAROR QILADI:

1. O’zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo`mitasi huzuridagi Kadastr agentligining 2021-yil 9-martdagi xulosasi hamda shahar mahalla fuqarolar yig’inlarining iltimosnomalari va shahar hokimining taklifi ma’qullansin.

2. Quyudagilar:

“Otchopar” mahalla fuqarolar yig’ini negizida “Bunyodkor”;

“Arabxona” mahalla fuqarolar yig’ini negizida “Arabtepa” fuqarolarning

o’zini-o’zi boshqarish organlarini tashkil etilsin.

3. Kadastr agentligining Qarshi shahridagi bo’linadigan va yangi tuziladigan mahallalar nomlari, yer maydoni, aholisi soni va chegaralari tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

4. Shahar statistika bo’limi, Davlat kadastrlari palatasining shahar filiali (M.Xushov), shahar qurilish bo’limi (J.Xazratov) va boshqa tegishli mutasaddi davlat organlari bilan birgalikda, mahallalarni davlat ro’yxatidan o’tkazish va elektron bazasini shaklllantirish, ish yuritish hujjatlariga tegishli o’zgartirishlar kiritish bilan bog’liq barcha tadbirlarni amalga oshirsinlar.

5. Shahar Moliya bo’limi boshlig’i (Sh.Ashurov) yangi tashkil etilgan “Bunyodkor”, “Arabtepa” fuqarolarning o’zini-o’zi boshqarish organlarini saqlash uchun zarur shartlarni 2021 yil 23 dekabrdan to’liq moliyalashtirilganligi inobatga olinsin.

6. Shahar IIO FMB boshlig’i (B.Mirzayev) fuqarolarning xorijga chiqish, kirish uchun hujjatlarini rasmiylashtirishda mahallalarning bo’linganligiga va qayta tashkil etilganligiga e’tibor qaratsin.

7. Shahar hokimining o’rinbosari (G’.Sultonov) shaharda yangi tashkil etilgan mahallalarga yangi nomi yozilgan ko’rsatkichlar va belgilar, peshlavhalarni zamonaviy dizayn talablari asosida o’rnatish vazifasi topshirilsin.

8. Mazkur qaror shahar hokimligi rasmiy veb-saytida e’lon qilinsin.

9. Mazkur qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

Kengash raisi **N.Xolboyev**